

# PEDAGOGICAL MASTERY AND TEACHER PERSONALITY: PROFESSIONAL DEVELOPMENT, LEADERSHIP SKILLS, AND MOTIVATION METHODS OF A TEACHER

**Gulfayruz Kalbaeva**  
*Nukus shahar 29- maktab*

## INTRODUCTION

Pedagogical activity encompasses not only the transfer of knowledge but also influencing students' personal development and socio-psychological preparedness. As a central figure in the education system, a teacher is responsible not only for providing knowledge but also for motivating students, guiding them, and serving as a role model. Therefore, a teacher's pedagogical mastery and personality have a significant impact on the quality of education. This article highlights the professional development of a teacher, their leadership skills, and methods of providing motivation.

### 1. Professional Development of a Teacher

A teacher's professional development is a continuous process of learning, gaining experience, and improving knowledge and skills. This development includes the following key areas:

- Keeping knowledge up to date: Teachers need to continuously study pedagogical, psychological, didactical, and innovative technologies that are transforming the field. Participating in various seminars and conferences helps teachers stay current with modern education standards and methods.

- Reflection and self-analysis: By analyzing their own work and understanding their shortcomings in the educational process, teachers can enhance their pedagogical skills. This involves evaluating one's own performance, monitoring results, and improving practice through experience.


- Developing communication skills with students: Teachers must effectively communicate with students, understand their needs, and apply an individual approach. This is a crucial part of professional development and enhances the educational process.

### 2. Teacher's Leadership Skills

A teacher is not only a knowledge provider but also a leader in the classroom and, sometimes, in the broader community. Leadership skills are based on:

- Guiding and mentoring students: A teacher should not limit themselves to providing academic information but also guide students to think independently,





develop creativity, and enhance their abilities. This is one of the primary aspects of leadership in teaching.

- **Responsibility and authority:** A teacher must fulfill their duties responsibly, take charge of classroom management, and lead the educational process effectively. They should serve not only as a source of knowledge but also as a mentor who helps students achieve their goals.

- **Fostering unity among students:** As a leader, the teacher must cultivate a sense of unity among students, promoting a positive psychological atmosphere in the classroom. This encourages students to help each other and contributes to a more effective learning environment.

### 3. Methods of Motivating Students

Motivating students is one of the key tasks of a teacher. Effective methods of motivation can be implemented in the following ways:

- **Individual approach:** Every student has different abilities and needs. The teacher should take into account each student's interests and provide motivation accordingly. This increases students' interest and encourages them to be more active.

- **Support and encouragement:** Teachers should recognize and value students' achievements, offering encouragement. Positive reinforcement and continuous communication help guide students towards success.

- **Promoting creative and independent thinking:** Assignments that encourage creative and independent thinking motivate students to engage with new knowledge in an interesting way.

## CONCLUSION

A teacher's pedagogical mastery, leadership skills, and motivational methods not only improve students' academic performance but also contribute to their personal development. Teachers should continuously work on themselves, further their professional development, and provide students with not only knowledge but also essential life skills. By effectively using motivation and leadership skills, teachers can guide students toward success.



## ENERGETIKA SOHASIDA DUNYONING ILG'OR TAJRIBASINI O'RGANIB, ENG SAMARALI, ARZON VA QULAY TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH MASALALARI

**Rayimov Shohruh Ibragim o`g`li**  
*“Toshkent issiqlik markazi” MCHJ yuriskonsulti*

So`nggi yillarda mamlakatimizda iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi turmush tarzini yaxshilashga qaratilgan tub o`zgarishlar amalga oshirilyapti. Respublikaning turli hududlarida erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar, klasterlar tashkil etilyapti. “Xavfsiz shahar” kabi strategik dasturlar asosida shahar-u qishloqlarda ulkan bunyodkorliklar qilinmoqda. O`z navbatida, atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik barqarorlikni ta`minlash masalasiga har qachongidan ham ko`ra ko`proq e`tibor qaratilmoqda. Jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida kuzatilayotgan bu kabi shiddatli rivojlanish sur`atlari, eng avvalo, elektr energiyasiga bo`lgan ehtiyojning ham o`sishiga olib kelmoqda.

Masalan, 2000 yilda bir nafar maishiy foydalanuvchi bir oyda 114 kvt/soat elektr energiyasi ishlatgan bo`lsa, 2018 yilga kelib bu ko`rsatkich 57 foiz ko`payib, 200 kvt/soatga yetdi. Ayni chog`da joriy yilda respublika bo`yicha elektr energiyasidan umumfoydalanishda aholi ulushi 26,5 foizga yetdi. Vaholonki, 1990 yilda bu miqdor 13,9 foiz edi. Boz ustiga, 2020 yilga kelib mamlakatimizda elektr energiyasiga bo`lgan talab 2018 yilga qaraganda 1,7 foiz, jumladan, aholi ehtiyoji 1,5 barobar o`sdi<sup>46</sup>.

Elektr quvvatiga nisbatan oshib borayotgan ehtiyojni to`laqonli qondirish, sanoat foydalanuvchilari uchun elektr yetkazib berishni sifatli ta`minlash, rejadan tashqari o`chirishlar (qurilmalarning favqulodda ishdan chiqib qolish holatlari)ning oldini olish uchun nimalar qilinmoqda yoki qilinadi? Mazkur o`ta dolzarb masala yechimiga mas`ul “O`zbekenergo” ajdan ma`lum qilinishicha, bu borada hozirda barcha chora-tadbirlar ko`rilmoqda va ular istiqbolda ham davom ettiriladi.

Mavzuga raqamlar va faktlar, og`riqli manzaralar orqali chuqurroq kirib boramiz. Respublikamizdagi elektr energiyasining 90 foizi issiqlik elektrostansiyalarida ishlab chiqariladi. Biroq amaldagi teslarning asosiy qismi, ya`ni 84 foizi bundan 50 yil oldin foydalanishga topshirilgan. Almisoqdan qolgan bunday qurilmalar, tabiiyki, zamon talablariga mutlaqo javob bermaydi. Boisi ularning nihoyatda eskirib ketgani elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmini kamaytirib

<sup>46</sup> <https://kun.uz/uz/news/2018/10/01/uzbekistonda-elektr-energiyasi-taminoti-tizimi-muammo-va-ecimlar>



yuborib, taqchilikni keltirib chiqarmoqda, qolaversa, foydalanilayotgan yoqilg'ining katta miqdorda sarflanishiga sabab bo'lmoqda. Oqibatda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasi tannarxi ham oshib ketayapti.

Bulardan oddiy iste'molchining deyarli xabari yo'q. Ular uchun uyda chiroq yonib turishi muhim, u qanday yaratilayotgani, nima hisobiga yetkazib berilayotgani esa ko'pchilikni qiziqitirmaydi ham. Lekin soliq to'lovchi yuqoridagi va quyidagi ma'lumotlarni o'qib, o'zi uchun oqilona xulosa chiqarib olsa, foydadan xoli bo'lmaydi.

Hozirgi kunda yurtimizda energiya tizimlari elektr tarmoqlari uzunligi 254,8 ming kilometrga teng. Shundan 218,4 ming kilometri 0,4-10 kv.li kuchlanishga ega past voltli taqsimlash tarmoqlaridir. Ulardan 62,4 foizining ishlatilish muddati 30 yildan oshib ketgan. Taqsimlash tarmoqlarining juda eskirib ketgani esa elektr energiyasining sezilarli darajada yo'qotilishiga olib kelmoqda. Ya'ni ayni paytda issiqlik elektrostansiyalaridan elektr energiyasi tarmoqlariga chiqarilayotgan umumiy elektr quvvatining 20 foizi yo'qotilayapti. Ishlab chiqarilayotgan yorug'lik va issiqlik manbaining beshdan bir qismi havoga uchib ketmoqda, uvol bo'layapti<sup>47</sup>.

Aynan mana shunday kamchiliklarni bartaraf etish, nuqsonlarni yo'qotish va isrofga yo'l qo'ymaslik uchun nima qilish kerak? Birinchi navbatda, iste'molchilarning elektr ta'minoti ishonchliliigi va sifatini ta'minlab qo'yish darkor. Albatta, bunda kelajakda elektr quvvatiga bo'lgan talabning oshib borishi ham inobatga olinish shart. Buning uchun quyidagi rejalar amalga oshirilishi lozim.

- issiqlik elektr stansiyalari energiya qurilmalarini modernizatsiya qilish (40 foiz), elektr energiyasini yetkazib berish va taqsimlashga mo'ljallangan elekt tizimlari (57 foiz), transformator punktlari (52 foiz) va nimstansiyalar (21 foiz)ni yangilash;

- yangi generator quvvatlarini ishga tushirish (bu elektr energiyasi ishlab chiqarishni 20-40 foiz oshiradi);

- amaldagi energiya qurilmalarini ishga layoqatli holatda saqlab turish uchun vaqti-vaqti bilan rejali ta'mirlash...

Yana bir hal etilishi suv va havodek zarur masala. Elektr energiyasi ishlab chiqarishga ketadigan xarajatlarning asosiy qismini energetika resurslari (**tabiiy gaz, yonishdan hosil bo'lgan mazut, ko'mir**) qiymati tashkil etmoqda. Mazkur ko'rsatkich hozirda **43 foizga** teng va ularning narxi dunyo bozorida qimmatlashib borayotgani inobatga olinsa elektr energiyasi uchun amaldagi tariflarni saqlab qolish naqadar to'g'ri?! Chunki resurslar narxiga foydalanish xarajatlari va to'lovlar

<sup>47</sup> <https://kun.uz/uz/news/2018/10/01/uzbekistonda-elektr-energiyasi-taminoti-tizimi-muammo-va-ecimlar>





bo'yicha qarzдорliklarni qo'shib hisoblaganda, muammoning og'riqli manzarasi hosil bo'ladi. Bunday muammolar elektr ta'minoti ishonchliligi va sifatiga salbiy ta'sir o'tkazishi mumkin.

***“O'zbekenergo” ajga o'z mablag'lari hisobidan ma'nan eskirgan qurilmalarni modernizatsiya qilish uchun investitsiya loyihalarini amalga oshirish, shuningdek, qarz mablag'larini yopish uchun 1398,2 mlrd. So'm kerak. Buning natijasida esa 2018 yil yakuniga kelib “O'zbekenergo” ajda moliyaviy resurslar defitsiti 864 mlrd. So'mni tashkil etadi.***

Shunday ekan, respublikamizda energetikaning pishiq-puxta rivojlanishi, iste'molchilarga elektr energiyasini barqaror yetkazib berish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash maqsadida qayta tiklanuvchi energiya manbalari (quyosh, shamol qurilmalari)ni hayotga tatbiq etishga ham alohida ahamiyat berilmoqda. Zero, bunday ne'matlarni o'zlashtirish tabiiy resurslarni kelajak avlod uchun asrab-avaylash, atmosferaga yoqilg'i yonishidan hosil bo'lgan zararli moddalar chiqarishni kamaytirishning muhim omili hisoblanadi. Yashil energetikani rivojlantirish uchun esa katta miqdorda moliyaviy sarmoya talab etiladi. Bu boradagi loyihalarni ro'yobga chiqarish uchun salohiyatli investorlarni jalb etish elektr energiyasiga iqtisodiy jihatdan jozibador tariflarni joriy etish evazigagina mumkin bo'ladi. Biroq mamlakatimizda bu ko'rsatkich rostdan ham jozibadormi, sarmoyadorlar uchun maqbulmi? Ekspertlarning aytishicha, unday emas, ya'ni O'zbekistonda elektr energiyasi uchun o'rnatilgan tariflar yaqin va uzoq xorijdagi davlatlarga nisbatan ancha pastdir. Masalan, 1 kv't/soat elektr energiyasi narxi Qozog'istonda 5,1 sent, Rossiyada 5,8 sent, Hindistonda 5 sent, Xitoyda 5,6 sent, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida 9-14 yevrosent bo'lgani holda yurtimizda 2,8 sentdir.

Past tariflar qatori elektr energiyasidan nooqilona, ko'r-ko'rona foydalanganlik uchun iqtisodiy sanksiyalarni qo'llash amaliyoti qonunchilikda belgilab qo'yilmagani bebaho ne'matning iste'molchilar tomonidan huda-behuda, samarasiz ishlatilishiga olib kelayapti. Kunduzi chiroq yoqib qo'yish, televizorning ko'rilsa-ko'rilmasa muntazam yoniq turishi va hokazo...

O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishdan ko'zlangan maqsadga erishish, uning energetika mustaqilligini ta'minlash bilan birga, respublikaning birmuncha uzoq istiqbolda elektr energiyaning yirik eksportchisiga aylanishi imkonini beradi. Energetika sektorida mujassamlashgan barcha potentsial afzalliklarga erishish uchun bir qator prinsipial jihatdan muhim tadbirlarni amalga oshirish zarur bo'ladi<sup>48</sup>.

<sup>48</sup> <https://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/10217>



**Birinchiidan:** ko'mir zahiralarning ko'pligini inobatga olgan holda , u asosiy resurs sifatida shakllanmog'i lozim.

O'zbekistonda ko'mirning tasdiqlangan zahiralari 1,95 mlrd. Tonna miqdoridadir. Prognoz resurslari 5,7 mlrd. Tonnadan ortiq miqdorni tashkil qiladi. O'zbekistonda barcha ko'mir zahiralarning 70 %ini qo'ng'ir ko'mir va lingit tashkil qiladi. Toshko'mir zahiralari janubiy hududlarda, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida jamlangan. Hozirgi vaqtda ko'mir uchta konda: Angren konida (qo'ng'ir ko'mir, 1,9 mlrd.t), Sharg'un va Boysun konlarida (tosh ko'mir, taxminan 50 mln.t atrofida) qazib olinadi.

**Ikkinchiidan:** energetika sanoatiga tashqaridan kapital mablag'lari jalb etilishi uchun investitsiya bazasi tashkil etilishi va bu sohada soliqqa tortish tartibi haqida qonunlar ishlab chiqilishi kerak.

**Uchinchiidan:** energetika sektorida korxonalarini tuzilmaviy jihatdan qayta qurish va ularning iqtisodiy samaradorligi hamda ishlab chiqarish salohiyatini oshirish maqsadida muassasaviy islohotlar o'tkazilishi taqozo etiladi.

**To'rtinchiidan:** hududlarda energetika tizimining notekis joylashganligi Respublika hududlarining iqtisodiy rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Vaziyat yana shu bilan chuqurlashadiki, yangi elektrstantsiyalar joylashtiriladigan maydonlar qisqarib bormoqda va 220-500 kvli tarmoqlarning juda keng maydonni egallashi ularni o'rnatishni mushkullashtiradi.

Energetika majmuasini rivojlantirishning asosiy maqsadi - xalq xo'jaligi va respublika aholisini elektr energiyasi hamda issiqlik energiyasi bilan samarali va ishonchli ta'minlash, bunda energetikaning atrof muhitga salbiy ta'sirini iloji boricha kamaytirish hisoblanadi. Shu sababli, respublika energetika tizimini rivojlantirish kontseptsiyasida quyidagi asosiy yo'nalishlarga ustuvorlik berish maqsadga muvofiq:

Faol energiyani tanlash va energiyadan oqilona foydalanish. Bu fan- texnika taraqqiyotini jadallashtirish borasidagi qo'yilgan vazifalarni hal qilib, elektr va issiqlik energiyasi iste'molini kamaytiradi hamda birlamchi yoqilg'ini tiklashga olib keladi. Energiya ishlab chiqarish tizimini rekonstruksiyalash va texnikaviy qayta qurollantirish. Tarmoqni tubdan rekonstruksiya qilish va qayta qurollantirish o'tkazish orqali o'z resurslarini tugatgan dastgohlar o'rniga yangilarini kiritishga zamin yaratiladi. Yangi vosita va texnologiyalardan foydalanish, energiya ob'ektlari faoliyat ko'rsatayotgan hududlarning ekologik ifloslanishini keskin kamaytirish imkonini beradi.

Tarmoqda elektr stantsiyalarini yoqilg'i bilan ta'minlashda uzoq muddatli ko'mir strategiyasiga o'tish. Respublikada tabiiy gaz zahiralarni cheklanganligi, bu



qimmatli mahsulotdan o'ta oqilona foydalanishni uni tejashni rag'batlantirishni va elektr energiyani ishlab chiqarishda ko'mir ulushini oshirib borishini takozo qiladi.

Hududlarni elektr quvvati va elektr energiyasi bilan ta'minlashni barqarorlashtirish<sup>49</sup>. Ekologik toza elektr energiyasi ishlab chiqarish va uning atrof muhitga ko'rsatadigan salbiy ta'sirini kamaytirishga qaratilgan qo'shimcha xarajatlar uzatilayotgan elektr energiya tariflari darajasining keskin oshishiga olib keladi. Shu sababli elektr energiyasi ishlab chiqarish va uni uzatishni hududiy barqarorlashtirish respublika energetika mustaqilligini ta'minlaydi va bu yuqori iqtisodiy samara beradi. Joylardagi boshlang'ich energiya resurslaridan unumli foydalanish va energiyaning kichik korxonalarini rivojlantirishga energiyaning noan'anaviy manbalarini tatbiq qilish orqali erishiladi.

Kichik energetika tizimini rivojlantirishning ahamiyatini iqtisodiy va ekologik omillar bilan tushuntirish mumkin, chunki bunday korxonalar qurilishida investitsion siklning qisqarishi, nafaqat energiya, balki moliyaviy resurslardan ham iloji boricha samarali foydalanish imkoniyatini beradi. Energetika tizimida investitsiya siyosatini oqilona olib borish. Tarmoqning o'zini-o'zi moliyaviy jihatdan taminlashiga erishish ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olgan holda tariflar darajasini belgilashning yangi qoidalarini shakllantirish, energiyani taqsimlash va energetika korxonalarining faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishi uchun zarur miqdorda foyda olish imkonini beradi.

Ta'kidlash joizki, o'zbekistonning energetik xavfsizlikni ta'minlash mexanizmi energiya tahdidlarining oldini olishga ta'sir ko'rsatish uchun tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy choralarni kompleks qo'llashdir. U quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi: energetik xavfsizlik ob'ektlarining hayotiy manfaatlariga ichki va tashqi tahdidlarni aniqlash va bashorat qilish maqsadida mintaqa energetika tarmog'ining ob'ektiv va har tomonlama monitoringini o'tkazish; mintaqa uchun maqbul energiya ko'rsatkichlarining qiymatlarini saqlash; mintaqaviy hokimiyat organlarining energetik xavfsizlikga ichki va tashqi tahdidlarni aniqlash va oldini olish bo'yicha faoliyati va boshqalar.

Zamonaviy dunyoda energetik xavfsizlikni ta'minlashning institutsional, tashkiliy va huquqiy shartlari zamonaviy siyosat, iqtisodiyot va jamiyatning ijtimoiy farovonligining asosiy elementlaridan biriga aylanmoqda. Energetik xavfsizlikni ta'minlash alohida mamlakatlar va ularning hamjamiyatlarining keng ko'lamli innovatsion va sarmoyaviy imkoniyatlarini safarbar etishni nazarda tutuvchi eng yirik xalqaro loyihalarni amalga oshirishni taqozo etadi. Bularning barchasi davlat va

<sup>49</sup> Ulugbek Azimov, Nilufar Avezova. Sustainable small-scale hydropower solutions in Central Asian countries for local and cross-border energy/water supply// Renewable and Sustainable Energy Reviews.



manfaatdor tadbirkorlik subyektlarining energetik xavfsizlik sohasida institutsional, tashkiliy, iqtisodiy va investitsiya siyosatini takomillashtirish, uning tarkibiy elementlari holatini baholash, sa'y-harakatlarni eng zaif sohalarga qaratishni oldindan belgilab beradi. Energetik xavfsizlikni tarmoqlari bo'yicha dissertatsiyada olib borilgan tahlil shuni ko'rsatadi hozirgi sharoitda bu sohadagi eng zaif bo'g'in elektroenergetika sanoati hisoblanadi<sup>50</sup>

Bugungi kunga kelib, energetika sohasida xalqaro hamkorlik faol rivojlanmoqda va energiya ta'minotining muvozanatli tizimlarini shakllantirish, energetika infratuzilmasi ob'ektlarini jismoniy himoya qilishni ta'minlash, energiya mahsulotlarining erkin bozorlarini yaratish imkonini beradi.

Xavfsizlikning aksariyat ta'riflari davlatning suveren manfaatlarini harbiy vositalar bilan himoya qilish bilan chambarchas bog'liq. Eng asosiy, asosiy darajasida xavfsizlik deganda aholi va hududni uyushgan kuchlardan himoya qilishga qaratilgan harakatlar tushuniladi. 70-yillarga qadar. 20-asrda bu tahdidlar an'anaviy ravishda harbiy xususiyatga ega bo'lib, ularga qarshi turishning asosiy va ba'zan yagona yo'li qurolli kuchlar edi. Shu bilan birga, asosiy e'tibor harbiy tahdidlar va javob choralari yoki "yuqori siyosat"ga qaratildi, xalqaro iqtisodiy munosabatlar va atrof-muhit kabi boshqa omillar esa davlatlar xavfsizligi uchun ikkinchi darajali muammolar sifatida qaraldi.

P. L. Kapitsa o'z ma'ruzasida to'g'ri ta'kidlaganidek, "umuman e'tirof etilganki, odamlarning moddiy madaniyati rivojlanishini belgilovchi asosiy omil energiya manbalarini yaratish va ulardan foydalanishdir. Ular bajaradigan ish hozir mushaklar ishidan bir necha baravar ko'p. Shunday qilib, eng rivojlangan mamlakatlarda har xil energiya manbalarining ishlatiladigan quvvati yiliga bir kishi uchun 10 kilovattgacha. Bu bir kishining o'rtacha mushak kuchidan kamida 100 barobar ko'pdir<sup>51</sup>.

Xulosa qilib aytganda, energetik xavfsizlikni yaxshilashga qaratilgan, energiya iste'moli va ishlab chiqarishda nomutanosiblikni keltirib chiqaradigan muayyan tahdidlarga qarshi turishi kerak. Aksariyat tahdidlarning elektr energiyasi xavfsizligi darajasiga ta'sirini kamaytirish energiya ishlab chiqarish va transport imkoniyatlarining iqtisodiyot ehtiyojlaridan ko'pligi bilan tavsiflangan elektr energiyasi zaxiralarining mavjudligi bilan ta'minlanishi mumkin. Binobarin,

<sup>50</sup> Tadqiqotning nazariy asoslari atrof-muhit huquqi sohasidagi S.A. kabi taniqli olimlarning asarlarida mavjud bo'lgan asosiy nazariy qoidalar edi. Bogolyubov, M.M. Brinchuk, G.E. Bystrov, M.I. Vasilyeva, O.L. Dubovik, N.G. Javoronkova, O.S. Kolbasov, V.V. Petrov, Yu.G. Shpakovskiy va boshqa mualliflar.

<sup>51</sup> Kapitsa P. L. SSSR Fanlar akademiyasining 250 yilligiga bag'ishlangan ilmiy sessiyadagi ma'ruzasi // EnergyFuture.Ru: Kelajak va hozirgi energiya haqida professional. URL: <http://energyfuture.ru/energiyafizika> (kirish 2015-yil 19-may).






*energetikasi xavfsizligini ta'minlashning asosiy shartlari energetika korxonalarining mavjud imkoniyatlardan foydalangan holda iste'molchilarni energiya bilan ta'minlash imkoniyatlarini tavsiflaydi*<sup>52</sup>. Aksariyat tahdidlarning elektr energiyasi xavfsizligi darajasiga ta'sirini kamaytirish energiya ishlab chiqarish va tashish imkoniyatlarining iqtisodiyot ehtiyojlaridan ko'pligi bilan tavsiflangan elektr energiyasi zaxiralarning mavjudligi bilan ta'minlanishi mumkin.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining 30.09.2009 yildagi 225-son "Energetikasi to'g'risida"gi qonuni;
2. "Energiyadan oqilona foydalanish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining 25.04.1997 yildagi 412-I-sonli qonuni;
3. Jahon energiya istiqbollari - 2010 [Elektron resurs].// Xalqaro energetika agentligi-Kirish rejimi: URL: [http://www.iea.org/russian/pdf/weo2010\\_caspian.pdf](http://www.iea.org/russian/pdf/weo2010_caspian.pdf) (kirish sanasi: 19/10/2010).
4. Xalqaro energetika dasturi, IEA ning asosiy hujjatlari, VI, 1-ilova. Sh;
5. Yevropada energiya, Energetikaga oid qonunchilik va boshqa hujjatlar to'plami, Yevropa Komissiyasi, Bryussel, 1994 yil dekabr;
6. Avezova N.R., Matchanov N.A., Raximov E.Yu., Xakimov M.A., Dalmuradova N.N., Dexkonova M.X. Otsenka potentsiala solnechnoy energii Kashkadarinskoy oblasti// "Alternativnaya energetika i ekologiya», № 01 (394), 2022g., str. 36-52.
7. Ulugbek Azimov, Nilufar Avezova. Sustainable small-scale hydropower solutions in Central Asian countries for local and cross-border energy/water supply// Renewable and Sustainable Energy Reviews.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Shanxay hamkorlik tashkilotining Samarqand sammiti: o'zaro bog'liqlikdagi dunyoda muloqot va hamkorlik" maqolasi dunyo tamaddunining bugungi voqeligiga berilgan haqiqiy bahodir. Yurtboshimiz insoniyatni tahlikaga solib turgan eng dolzarb muammolar haqida fikr yuritar ekan, qurolli mojarolar oqibatida izdan chiqayotgan savdo va investitsiya oqimlari davlatlar iqtisodiyotiga jiddiy ta'sir etganligini alohida

<sup>52</sup> Energetika xavfsizligini ta'minlashning umumiy masalalari, shuningdek, uning iqtisodiy, tarixiy va siyosiy jihatlarini va umumiy tabiiy resurslar muammolari I.R. Aizenberg, Yu.L. Baron, A.N. Bereza, E.V. Blinkova, S.A. Bogolyubov, Yu.V. Borovskiy, M.M. Brinchuk, M.I. Vasilyeva, AC Vishnyakova





ta'kidlaganlar. Buning oqibatida oziq-ovqat va energetik xavfsizlikni ta'minlash qiyinlashmoqda.

**9.** Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. –Toshkent: o'zbekiston, 2018. –508 b.

**10.** Fars Int J Edu Soc Sci Hum 10(12); 2022; 499Publishing centre of Finland

**11.** Mamlakatimizning 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017-yil 14-yanvar. –Toshkent: O„zbekiston, 2017. –104 b.

**12.** Mirziyoyev Sh.M. II.MONOGRAFIYA, ILMYIY MAQOLA, ILMYIY TO'PLAMLAR .

**13.** Atruf tabiiymuhitni muhofaza qilish: Qonunlar va normativ hujjatlar/ U.T.Ayubov, T.S.Tillayev. -T.: Adolat, 2002.-B.310. 2. Ayubov U.T. Lisheniye ogranicheniye i priostanovleniye prava prirodopolzovaniya.:Avtoref... Kand. Yurid. Nauk/ U.T.Ayubov; Tashkentskogo gosudarstvennogo yuridicheskogo instituta-T.: 1999. 3.

**14.** O.Narzullaev Energitika huquqi o'quv qo'llanma TDYU 2021-yil.

